

Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari insoniyat hayotining deyarli barcha jabhalariga ta’sir qilayapti. Bu jarayonlardan oila instituti ham chetda qolmayapti. Iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik rivojlanish an’anaviy oilaviy munosabatlarga ta’sir o‘tkazib, shaxsiy nomulkiy munosabatlarni qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Nikoh shartnomasini takomillashtirish:

an’anaviy qarashlar va qonunchilikdagi bo‘shliqlar

Bugun oilaviy majburiyatlarning bajarilishi, huquqiy javobgarlik masalalari, nikoh va nikohdan keyingi davrda mulkiy huquqlarni hamda farzandlar manfaatlarini himoya qilish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki iqtisodiy manfaatlar, shaxsiy munosabatlar va an'anaviy qarashlar o'rtasidagi ziddiyatlar ortib bormoqda. Shunday sharoitda har bir shaxs o'z huquqiy kafolatlarini aniq belgilab olish imkoniyatiga ega bo'lishi muhim.

Oilaviy qonunchilikni takomillashtirish, xususan, oilaviy shartnomalar mexanizmlarini ishlab chiqish va keng joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu sababli oila institutini mustahkamlash va uning a'zolarini huquqiy himoya qilish uchun an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy huquqiy mexanizmlarni uyg'unlashtirish, jumladan, nikoh shartnomasi kabi huquqiy vositalarni rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, darslik va o'quv qo'llanmalarida asosan nikoh shartnomasi hamda alimentlar to'g'risidagi kelishuvlarga urg'u beriladi. Ilmiy maqolalar va tezislarda esa ko'proq nikoh shartnomasining kam tarqalganligi va xorijiy tajriba o'rganiladi. Vaholanki, oilaviy-huquqiy shartnomalar faqat nikoh shartnomasi bilan cheklanmaydi, ularning turlari ancha kengdir.


O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida ko'plab moddalar "agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha holat ko'rsatilmagan bo'lsa", "agar kelishuv bo'lmasa", "agar aliment to'lash bo'yicha kelishuvda indeksatsiya tartibi belgilanmagan bo'lsa" kabi normalarni o'z ichiga oladi. Bu esa oila a'zolariga o'z munosabatlarini shartnomaviy asosda tartibga solish imkoniyatini beradi.

Oilaviy-huquqiy shartnomalar taraflarning huquq va majburiyatlarini aniqlab, qonunda bevosita ko'zda tutilmagan jihatlarni tartibga solishga xizmat qiladi. Bu shartnomalar fuqarolik-huquqiy shartnomalardan subyektlar doirasi, shakli, tuzish prinsiplari, bajarilishi va javobgarlik choralari bo'yicha farqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining qator moddalari oilaviy shartnomalarni o'z ichiga oladi. Xususan:

- Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi kelishuv (27-modda);
- Nikoh shartnomasi (29-modda);
- Ota-ona va voyaga yetmagan bolalar umumiy mol-mulkni vujudga keltirish to'g'risidagi kelishuv (92-modda);
- Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv (100, 118-moddalar);
- Ota-onaning kelishuviga binoan bolaga ism, ota ismi berish (69, 208-moddalar);
- Ota-onaning kelishuviga binoan ota-ona alohida yashaganda bolalarning qayerda yashashini belgilash (75-modda);
- Ota-ona boladan alohida yashaydigan ota(ona)ning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi kelishuv (76-modda);
- Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv (195-modda)[1].

Ushbu shartnomalar orasida maqolada tahlil qilinayotgan nikoh shartnomasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'zining kompleks xususiyati bilan ajralib turadi. Nikoh shartnomasining huquqiy tabiatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston Oila kodeksining 29–36-moddalarida shartnomaning mohiyatiga oid normalar belgilangan. Nikoh shartnomasi oila subyektlari o'rtasidagi munosabatlarning darajasini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, aksariyat davlatlar tomonidan er va xotinning mulkiy munosabatlarini tartibga soluvchi vosita sifatida



[1] 30.04.1998. Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси.



tan olingan. Nikoh shartnomasining predmeti er va xotinning mol-mulki hisoblanadi. Shartnoma predmetining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u er-xotinning mavjud hamda kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mol-mulki yuzasidan tuziladi.

Nikoh shartnomasining oilaviy-huquqiy mansubligini belgilaydigan bir qator xususiyatlarga quyidagilar kiradi: shartnomani qoplashning fuqarolik prezumpsiyasini qo‘llashning mumkin emasligi, nikoh shartnomasini tuzishda shartnoma erkinligi prinsipining kontragentni tanlash erkinligi elementi bilan cheklanmaganligi, fuqarolik-huquqiy shartnomalar orasida analoglarning mavjud emasligi, shuningdek, nikoh shartnomasi taraflarining bir-birlari bilan nikoh, sevgi (iqtisodiy va huquqiy emas) asosidagi shaxsiy, hissiy munosabatlar bilan bog‘langanligi[2].

Roman-german huquq tizimiga mansub davlatlar qonunchiligida nikoh shartnomasi er-xotin o‘rtasidagi mulkiy masalalarni tartibga solib keladi. Mazkur shartnoma ajrashish jarayonida sud huquqiy jarayonini yengillashtirishi mumkinligi sababli oilaviy nizolarni hal etishda samarali vosita hisoblanadi. Shartnoma huquqining umumiy holatlari nikoh shartnomasiga ta’sir o‘tkazadi va bu orqali fuqarolik-huquqiy shartnoma hamda nikoh shartnomasi o‘rtasida bog‘liqlik mavjud. Shunga qaramay, nikoh shartnomasi o‘ziga xos mustaqil va aralash shartnoma turi bo‘lib, kompleks xarakterga ega. Uning kompleksligi er-xotin mulkiy rejimini belgilash va o‘zgartirish, shuningdek, o‘zaro ta’minot shartlarini belgilash bilan ifodalanadi.

Nikoh shartnomasining amaliyotda kam qo‘llanishi masalasi O‘zbekiston oilaviy qonunchiligiga nikoh shartnomasi instituti kiritilganidan buyon bahsli masala bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida nikoh shartnomasi instituti qonunchilikka kiritilganiga qaramay, uning amaliyotda kam qo‘llanilishi bahsli masala bo‘lib qolmoqda. Garchi nikoh shartnomasi er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlarini aniq belgilash orqali oilaviy nizolarning oldini olishda muhim muhim o‘rin tutsa-da, amaliyotda bu institut yetarlicha qo‘llanmayapti.

Yuridik nuqtayi nazardan nikoh shartnomasi oilaviy munosabatlarni tartibga solish va nizolarni hal etishda katta ahamiyatga ega bo‘lsa-da, amaliyotda shartnoma tuzish jarayonida uning ijtimoiy tomonlari va oqibatlari bo‘yicha doimiy muhokama va tortishuvlar yuzaga kelmoqda.

[2] Левушкин А. Н. Брачный договор в Российской Федерации, других государствах – участниках Содружества Независимых Государств и Балтии: учебно-практическое пособие. – М.: Юстицинформ, 2012.

Shu munosabat bilan ushbu bahs va muhokamalarni tahlil qilib, quyidagi fikr-mulohazalarni keltirib oʻtishni lozim topdik:

Birinchidan, oilaviy-huquqiy shartnoma tuzish amaliyoti milliy huquqiy amaliyotda oilalar tomonidan oʻzaro munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida qabul qilinmayapti. Oʻzbekistonda 2021-yilda rasmiylashtirilgan 305 211 ta nikohning atigi 0,9 foizi yoki 2749 tasida nikoh shartnomasi tuzilgan. 2022-yilda esa mamlakatda faoliyat yuritayotgan notariuslar tomonidan 8113 ta nikoh shartnomasi rasmiylashtirilgan. Qozogʻistonda soʻnggi besh yilda nikoh shartnomalarining soni uch baravar oshgan[3]. Rossiya Federatsiyasida esa 2023-yilda 119,4 mingta nikoh shartnomasi tasdiqlangan[4], bu 2022-yilga nisbatan 11 foiz koʻpdir. 2024-yilning birinchi yarmida esa 50 mingdan ortiq er-xotin mulkiy munosabatlarini tartibga solish maqsadida notariuslarga murojaat qilgan.

Ikkinchidan, koʻpchilik fuqarolar nikoh shartnomasining afzalliklaridan xabardor emas, shuningdek, uni imzolash munosabatlardagi ishonchni pasaytirishi mumkinligidan xavotirlanadi. Jamiyatda bunday shartnoma er va xotin oʻrtasidagi ishonchsizlik belgisi sifatida qabul qilinadi. Oʻtkazilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ayollar erkaklarga qaraganda nikoh shartnomasining mazmun-mohiyatini yaxshiroq tushunadi. Respondentlarning 66,1 foizi nikoh shartnomasi iqtisodiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solishi haqida toʻgʻri javob bergan[5].

Uchinchi jihat shundaki, Oʻzbekiston Oila kodeksiga koʻra, nikoh shartnomasi er-xotin oʻrtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga sola olmaydi va qonunda nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarni cheklay olmaydi. Bu esa nikoh shartnomasining imkoniyatlarini toraytiradi.

Toʻrtinchidan, an'anaviy me'yorlar va stereotiplar, shuningdek, er va xotin oʻrtasidagi mulkiy tengsizlik nikoh shartnomasi institutining rivojlanishiga toʻsqinlik qilmoqda. Jamiyatda mol-mulk umumiy hisoblanadi degan tushuncha mavjud boʻlib, moliyaviy masalalar koʻpincha ogʻzaki kelishuvlar asosida hal etiladi. Ayniqsa, ayollarning mol-mulkka egalik huquqi cheklangan yoki ular bu borada tashabbus koʻrsatishdan tortinadi. Bu esa ajrashish holatlarida ayollarning mol-mulksiz qolish xavfini oshiradi.

Beshinchidan, nikoh shartnomasiga bolalar bilan bogʻliq masalalarni kiritish mumkin emasligi va bunday masalalar alohida shartnoma orqali tartibga solinishi zarurati mavjud. Bolalar tarbiyasi, yashash sharoiti va moddiy ta'minoti masalalarini oldindan kelishib olishning imkoni yoʻqligi ajrashish jarayonida qoʻshimcha nizolarga sabab boʻladi. Oila kodeksining 76-moddasiga koʻra, bunday munosabatlarni kelishuv asosida hal etish mumkin.



[3] https://www.zakon.kz/stati/6442623-brachnyy-dogovor-v-kazakhstane-ot-kakikh-potentsialnykh-riskov-on-mozhet-zashchitit.html?utm_source=chatgpt.com.
[4] https://notariat.ru/ru-ru/news/rol-notariata-v-brachno-semejnoj-sfere-obsudili-na-nauchnoj-konferencii-v-sankt-peterburge-2412.
[5] Тадқиқот 2024 йилда социологик сўров усули орқали Қорақалпоғистон Республикаси, Хоразм вилояти, Фарғона вилояти, Самарқанд вилояти, Тошкент шаҳрида 422 та турли ёшдаги фуқаролар ўртасида ўтказилган.

Yuqoridagi jihatlarni hisobga olgan holda, O‘zbekistonda nikoh shartnomasini yanada rivojlantirish va uning qo‘llanish doirasini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu nafaqat oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini mustahkamlashga, balki fuqarolar huquqlarini himoya qilishga ham xizmat qiladi.

Xorijiy tajribani o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, nikoh shartnomasini tuzish nikoh va ajralish jarayonlari paytida yuzaga keladigan har xil mulkiy-moddiy nizolarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora hisoblanadi.

Oilaviy-huquqiy shartnomalar taraflarning huquq va majburiyatlarini aniqlab, qonunda bevosita ko‘zda tutilmagan jihatlarni tartibga solishga xizmat qiladi. Bu shartnomalar fuqarolik-huquqiy shartnomalardan subyektlar doirasi, shakli, tuzish prinsiplari, bajarilishi va javobgarlik choralari bo‘yicha farqlanadi.

G‘arb mamlakatlarida nikoh shartnomasi boshqa tartibda tuziladi, bu esa er va xotinga ularning shaxsiy munosabatlarining deyarli barcha jihatlarini tartibga solish imkonini beradi. Turli mamlakatlarda nikoh shartnomasini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish tartibi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, Germaniyada nikoh shartnomasini istalgan vaqtda tuzish, o‘zgartirish yoki bekor qilish mumkin. Lotin Amerikasi davlatlarida, jumladan, Braziliya va Kolumbiyada nikohdan keyin nikoh shartnomasini tuzish taqiqlangan. Niderlandiyada esa nikoh shartnomasi faqat sud ishtirokida o‘zgartiriladi.

AQSh, Kanada, Fransiya va Germaniya kabi davlatlarning qonunchiligi nikoh shartnomasida oiladagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni aks ettirish imkoniyatini ham istisno etmaydi. Bu esa nikoh shartnomasiga bo‘lajak er va xotinning mulkiy holati bilan bog‘liq bo‘lmagan turli qoidalarni ham kiritish imkonini beradi. Masalan, Angliya-Amerika huquqiy tizimi nikoh shartnomasida bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarni tartibga solish imkonini beradi[6].

AQShda nikoh shartnomasi uchinchi shaxslar bilan munosabatlarni hal qilish huquqini ham beradi (masalan, bolalar, ota-onalar, qarindoshlar). Germaniyada nikoh shartnomasi nafaqat nikohning istalgan vaqtida tuzilishi mumkin, balki er-xotin tomonidan istalgan vaqtda o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi ham mumkin. Bunda o‘zgartirish yoki bekor qilish notarial tasdiqlangan shaklda amalga oshirilishi talab etiladi.

Ba’zi davlatlarning qonunchiligida esa nikoh davomida nikoh shartnomasini tuzish yoki o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi yoki bu jarayon murakkablashtiriladi. Masalan, Niderlandiyada nikoh shartnomasi nikohdan oldin yoki nikoh davomida tuzilishi mumkin, biroq nikohdan keyin uni faqat sudning roziligi bilan o‘zgartirish mumkin va bunday ruxsat faqat nikoh kamida bir yil davom etgan bo‘lsa beriladi. Lotin Amerikasi davlatlarida, jumladan, Braziliya va Kolumbiyada nikoh shartnomasi faqat nikohdan oldin tuzilishi mumkin. Biroq Peru qonunchiligida nikoh mulki rejimi erkin tartibga solingan bo‘lib, er-xotin nikoh davomida o‘z mulkiy rejimini boshqasiga almashtirish huquqiga ega.

AQShda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishda farzand tarbiyasiga oid shartnomalar (parenting agreement) alohida ahamiyatga ega. Bu shartnoma shartlarini Amerika sudlari bolalar manfaatlarini hisobga olgan holda o‘zgartirishi mumkin. Nikohdan ajralish jarayonida esa AQSh qonunchiligiga ko‘ra, sud ishtirokisiz nizolarni hal qilish va nikohni bekor qilish asoslaridan biri sifatida nikoh shartnomasi muhim ahamiyatga ega.

Fransiyada nikohdan oldin, nikoh davomida va nikohdan keyin tuziladigan shartnomalar mavjud. Fransiya qonunchiligiga ko‘ra, ajralish chog‘ida er-xotin o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi shartnomani sudga taqdim etishi va sud uni tasdiqlashi lozim. Turkiya qonunchiligida esa nikohdan ajralish jarayonida shartnoma tuzish imkoniyati yaratilgan bo‘lib, agar ajralish o‘zaro rozilik asosida bo‘lsa, taraflar ajralish shartnomasini tuzib, unda ajralishdan keyingi majburiyatlar, farzand tarbiyasi, aliment va boshqa masalalarni kelishib olishlari kerak.

[6] Низамиева О.Н. Имущественные соглашения супругов в зарубежном праве // Семейное и жилищное право. 2004. N 3. С. 25.



Yuqoridagi tahlillarga asoslanib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- oila qonunchiligini oilaviy-huquqiy shartnomalar asosida vujudga keluvchi majburiyatlarni bajarish va oilaviy shartnomaviy javobgarlikka oid masalalar nuqtayi nazaridan takomillashtirish;
- oilaviy-huquqiy shartnomalarni tizimlashtirish va ularni qo‘llash doirasini kengaytirish;
- amaliyotda oilaviy-huquqiy shartnomalarni qo‘llash va nizolarni kelishuv asosida hal qilish vositasi sifatida targ‘ib qilish;
- nikoh shartnomasida nafaqat mulkiy munosabatlarni, balki shaxsiy nomulkiy munosabatlarni ham tartibga solish imkoniyatini yaratish;
- nikohdan FHDY orqali ajrashishda tomonlarning o‘zaro kelishuvini aks ettiruvchi ajrashish shartnomasini tuzishni majburiy qilish va uni notarial tasdiqlash;
- nikoh shartnomasi nikoh tugatilganidan keyingi munosabatlarni tartibga soluvchi tarzda tuzilganda, voyaga yetmagan farzandlarning ta’minoti va yashash joyi masalasini shartnomaning zaruriy sharti sifatida belgilash.

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, anglo-sakson va roman-german huquq tizimlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solish usullari turlicha. Masalan, anglo-sakson huquq tizimida prenuptial (nikohgacha tuziladigan) va postnuptial (nikoh davomida yoki undan keyin tuziladigan) shartnomalar ajratiladi va keng qo‘llanadi. Shuningdek, nikoh va oila munosabatlarini tartibga soluvchi yagona tizimlashtirilgan qonunchilik mavjud emasligi, ba’zi mamlakatlarda diniy normalar asosida nikoh munosabatlariga kirishish va huquqiy tartibga solish tizimining uyg‘unlashgani shartnoma asosida oilaviy munosabatlarni tartibga solish imkonini yaratgan.

Anglo-sakson huquq tizimida nikohni bekor qilish jarayoni shartnoma shartlariga bog‘liq bo‘lishi, shuningdek, davlat nazorati yoki individual nazorat rejimiga asoslanganligi ham muhim omillardan biridir. Shu bois oilaviy-huquqiy shartnomalarning xalqaro tajribadan kelib chiqib takomillashtirilishi mamlakatimiz oila huquqi tizimining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xurshida SAYDIVALIYEVA,
“Oila va gender” ilmiy tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent